NASRIDDIN AFANDI OBRAZIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Xaitov Xamza Axmadovich
Bux DPI dotsenti, f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Nasriddin Afandi obraziga aloqador dalillar ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: Oqshahar, xoja, mulla Nasriddin, Turkiya, Saltuknoma, Manzilnoma, Avliyo Chalabiy, Mehmed Poshsho, Boyazid va hokazo.

Nariddin Xo’ja tarixiy shaxs bo’lganmi? – degan savol barcha adabiyot ixlosmandlarini qiziqtirib keladi. Dalillarning yetarli emasligi ko’plab tadqiqotchilarning uning tarixdagi haqiqiy, tarixiy shaxs ekanligiga shubha bilan qarashlariga asos bo’lmoqda. Nasriddin Xo’ja va uning hayoti haqidagi hikoyalar bilan bir qatorda ushbu tarixiy ideal obraz xususida turli xil ilmiy dalillar mavjud. Ulardan birinchisi uning Turkiya davlatidagi qabristondagi qabrlardan birida toshga yozilgan ustun mavjud bo’lib, tosh ustunda joylashgan yozuv: 1393-1394-yillarda Boyazid xizmatidagi Yoman Mehmed tomonidan yozib qoldirilgan bir nechta satr: “Nasriddin Xo’janing qabri v asana 683-yil”. Bugungi kunda Oqshahar muzeyida saqlanayotgan Nasriddin Xo’ja qizlari qabridan lavhalar ham muhim dalil sifatida qabul qilingan. Bular Nasriddin Xo’janing katta qizi Fotima Xotunning 1931-yilda Sivrihisardagi qabristondan topilgan va hijriy 727 va milodiy 1326-1327 yoshi bilan, Nasriddin Xo’ja qabri etagidan topilgan “Duru malak binti Nasriddin Xo’ja “,-deb yozilgan ashyolardir. 1476-yilda viloyat yozuvlarda keltirilgan Nasriddin Xo’ja maqbarasini parvarish qilish “Nasriddin Xo’ja taqvodor” jamg’armasidan olingan daromad haqidagi ma’lumot eng muhim dalildir. Nasriddin Xo’janing nomi 1480-yilda yozib tugatilgan asar Abul Xayr Rumiyning “Saltuknoma” kitobining ikki joyida tilga olingan. “Telba birodar”taxallusi, laqabi bilan tanilgan Bursalik Mehmet Gazali tomonidan yozilgan “Kitobi dafiyul-gumum- raviyul numum” deb nomlangan asarida Nasriddin Xo’ja latifalaridan namunalar keltirilgan. Taxminan 1527-yilda

yozilgan Guhis Pandnomasida ham Nasriddin Xo’ja haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. [6] XVI-asrning yana bir manbasi Xo’ja Nasriddin latifalari bilan boshlangan. Boyazid davridagi noma’lum shoir o’zining “Letdif” asarida Nasriddin Xo’janing latifalari haqida hikoya qiladi. Xuddi shu tarzda to’rtta latifa va birta hikoyatni keltiradi. Duman Mustafo ham o’z asarlarida Nasriddin Xo’janing latifalaridan bir qancha misollar keltiradi.Nasriddin Xo’ja haqida qimmatli ma’lumotlar halik sayyoh Simyon tomonidan ham keltirilgan. U 1618-yilda Oqshaharga kelganda Nasriddin Xo’janing qabrini ziyorat qilganini aytadi. Ushbu voqealar Semyonning “Shimoliy sayohatlar” kitobining III-jildida yozib qoldirilgan. 1638-yilda Oqshaharga kelgan Avliyo Chalabiy “Sayohatlar”kitobida Nasriddin Xo’ja haqida qimmatli ma’lumotlar keltiradi. XVII-asrda yozilgan Ziyosoz Mehmet Afandi va Yusuf Nabiy (vafoti 1712-yil) tomonidan yozilgan “Tuhfatil Haramayn” asarlarida ham Nasriddin Xo’ja haqida muhim fikr- mulohazalar mavjud. XVIII asrda noma’lum muallif tomonidan yozilgan “Manzilnoma” deb nomlangan asarda Oqshahar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu asarda muallif Nasriddin Xo’ja maqbarasi shaharda ekanligi haqida aytilib, kimki shu shaharga kelsa, ushbu qabrni ziyorat qilishi ta’kidlanadi. Ayvonsaroylik Husayn Afandi tomonidan yozilib, 1675-yilda tugatilgan, To’pqopi saroyi g’aznachilik kutubxonasida saqlanayotgan asarda Nasriddin Xo’janing hayotiga oid ma’lumotlar mavjud. XV asrning ikkinchi yarmida Nasriddin Xo’ja haqidagi ma’lumotlar ilgari aytib o’tilgan ma’lumotlarni, dalillarni takrorlaydi. XVI asrdan boshlab, xususan, Nasriddin Xo’janing latifalari og’zaki madaniyatdan yozma adabiyotga o’tkazila boshlandi va ko’plab hujjatlarda qayd qilina boshlaydi. Xuddi shu tarzda XVI asr boshlaridagi Nasriddin Xo’janing hikoyalarini alohida yozuvlarda yoddan yozib olinganini ko’rish mumkin. Husayn ismli shaxs tomonidan 1571-yilda yozilgan “Hikoyati kitobi Nasriddin Xo’ja” asarida 43 ta hikoya keltiriladi. Pertevi Neyli Varatovning xabar berishicha, Parijdagi milliy kutubxonada Nasriddin Xo’ja haqida 12 ta kitoblar mavjud bo’lib, ularning eng qadimgi tarixiysi XVI asrga oid, eng yangisi esa XIX asrga tegishli ekanligini manbalar tasdiqlaydi. Anqara universiteti tillar, tarix va geografiya fakulteti kutubxonasida Ismoil Sa’ibning

[6] Varatov P.N.””Nasriddin Xo’ja”. Anqara. Adabiyotchilar. 1996,b-17-24.

asarlari qatori (hij.1171- mil. 1177-y.) da yozilgan va 1|1838 raqami bilan kataloglangan 142 betlik kitob mavjud. Uning nomi “Hikoyati Xo’ja Nasriddin Xoja Afandi” . Ushbu asarda ham Nasriddin Xo’ja haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Turk adabiyotshunosi Mustafo Duman Nasriddin Xo’ja haqida qimmatli 68 ta qo’lyozmani topgan va to’plagan.[7]Mustafo Dumanning ma’lumotlariga qaraganda Nasriddin Xo’ja bir necha xil ish turi bilan shug’ullangan bo’lsa ham, umrining ko’p qismini imom, voiz, ilohiyotshunoslik, qozi yoki dehqon sifatida o’tkazganligi aytiladi. U 1285- yilda 77 yoki 78 yoshida Oqshaharda vafot etdib, uning qabri besh tomoni ochiq, bir tomoni ulkan qulfli eshik va gumbaz bilan oltita marmar ustunlar bilan ko’tarilgan. Oqshahar shahrining markazidagi buyuk qabristondan- Saljuqiylar qabristonidan joy olgan. Nasriddin Xo’jaga yozilgan birinchi qabr tosh bugungi kunda mavjud emas. Ba’zi ma’lumotlarga ko’ra so’nggi tiklash paytida (hij.683. milod. 1285-y.) tosh topilgan.[8]

Rus adiblari L. Salavyev, Viktor Vitkovichlar Nasriddin Afandi haqida 10 ga yaqin badiiy asarlar yozib, latifalardan to’plab nashr qildilar. 1910-yillarda Azarbayjon davlatidan bizning “Mushtum”jurnali xarakterida “Mullax Nasriddin”jurnali muntazam ravishda nashr qilib borilgan. Bizning qo’limizda shu jurnalning Ozarbayjon arxividan olingan bir nechta nusxalari mavjud. Jurnalda Xoja Nasriddin Afandi latifalaridan turli namunalar berilgan bo’lib, ular rangli suratlar asosida ifodalangan.

Keyinchalik Kastamonudan Nasriddin Xo’ja, Oqshahardan Xoja Nasriddin Afandi, Zivrihisordan Nasriddin Xo’ja, Ozarbayjondan Mullax Nasriddin Tusiy, Buxorodan Nasriddin Afandi kabi kishilar paydo bo’ldi. Bularning bari bir xil najotkor va estetik mutoyiba kishilari edilar. Biz yuqorida sanab o’tgan obrazlarning ilmiy dalililari yo’q ammo bu hol Nasriddin Xo’janing an’anaviy aql-idrokining kuchi va keng ta’sirini ko’rsatadi.[9]

Buxorolik taniqli shoir Sadriddin Salim Buxoriy Nasriddin Afandi nomiga ba’zan qo’shib aytiladigan “Xoja” so’zini izohlar ekan, uning “sardor”, “sarvar”,

[7] Duman Mustafo “Nasriddin Xo’ja va 1555 fikran”. Istambul. Heyamola. 2008.b-26-27.
[8] O’zdemir Nebi “Faylasuf Nasriddin Xo’ja falsafasi”. Anqara. Ministr of culture. 2011.b-13-14.
[9] Lamizoda Abdulloh Chalabiy”Latifalar”. Istambul. 2006. B-38-39.

“sohib”, “xo’jayin” ma’nosini bildirishini, chahoryorlar- Abu Bakr Siddiq, Umar, Usmon Zunnurayn, Ali roziollohu anhularning avlodlarini ham “Hoja” deyishganini, buning qadimdan rasm bo’lganini, Xoja Nasriddin deganda, uning tariqat borasidagi yo’liga ishora qilinganini bildiririshini ta’kidlaydi.[10]

Rus adabiyotida yaratilgan deyarli barcha asarlarda Xo’ja Nasriddin Afandi obrazi bevosita Buxoro shahri bilan bog’liq. Bizningcha, bunga sabab g’oyatda ommaviy va hozirjavob, nozik qochirimli, mayin kinoyali, kichik kulgili hikoya bo’lgan latifalarni maxsus to’plab o’rganish Buxorodan boshlanganligi bo’lishi mumkin. 1223-yilda Muhammad Avfiy Buxoriy (1172|1176: 1223|1242) latifalarni yig’ib, “Javomeul- hikoyot va lavomeur-rivoyot” (hikoyatlar to’plami va rivoyatlar ziyosi) nomi ostida alohida kitob sifatida tartib bergan va chop ettirgan. Ehtimol shu hodisa ham Xo’ja Nasriddin Afandining(latifa janrining) yurti Buxoro deb qarashga zamin yaratgandir.[11]

Bu boyagi yasangan kishi edi. Bu g’alamiz odamni “hamma” degan so’zini bek va shohga tiqayotganini Nasriddin tushundi. Sekin u tomonga bora boshladi.

-Siz bu gapingiz bilan hammani g’irromlik, haromxo’rlik qiladi demoqchimisiz? – So’radi unga mos zaxarxanda va tahdidona ohangda. –Qani qimirlamay turingchi, yuzingizda bitta pashsham borga o’xshaydi.

Kulgi ko’tarilda. Yasangan kishi ko’zlari chaqchayib, tisarila boshladi.”[12]

Xo’ja Nasriddin Afandi obrazi mana shunday zukko va donishmand, kambag’alparvar va tadbirkor sifatida ijobiy ifoda topadi. “Gapirayotgan odam o’zi tanlagan qahramonning og’zidan foydalanadi. Shunda odamlar Nasriddin Xo’ja tilida o’z ovozlarini chiqaradilar”.[13]Zero, xalq kulgisi el ko’zida qilib bo’lmaydigan ishlarni bajaruvchi, gapirib bo’lmaydigan so’zlarni gapiruvchi, shaxslarni fosh qilish vositasidir.

Nasriddin Afandi obrazi va uning latifalari insonlar ongini turli yo’llar bilan tarbiyalashda davom etmoqda. Uning an’anaviy hamurasi ijodiy faoliyatning asosi va

[10] Sadriddin Salim Buxoriy “Biz bilmagan Nasriddin”.-Tafakkur-1996, 2-son, b-86.
[11] O’rayeva D.S.”Nasriddin Afandi- ezgulik va haqiqat himoyachisi”.Nasriddin Afandining xalqaro kulgi madaniyatidagi o’rni. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Buxoro. 2019.b-60.
[12] Osha joyda. B-117.
[13] Koshkun Dugmachi” Eng go’zal Nasriddin Afandi fikralari”. Anqara. Qizil oy. 2003.b-7.

manbaiga aylanmoqda. Nasriddin Afandi haqidagi betakror latifalar hayotning turli sohalarini qamrab olgan boy mavzular silsilasidir. Latifalardagi teran fikr va g’oyalar, hayot falsafasi zamonamiz kishilarini hayratda qoldirish qudratiga egadir. Xo’ja Nasriddin Afandi obrazi bizning bugungi ma’naviy idealalrimiz bilan ham uzviy bog’liqdir.